

## **O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA DOSTONLARNING O‘RNI**

*Bahodirbekova Farangiz Ramzbek qizi*

*“Musiqqa madaniyati” fakulteti “Musiqqa ta’limi” yo’nalishi 2-kurs talabasi*

*Yuldoshev Umidjon Yuldoshevich*

*Ilmiy rahbar, “Musiqqa nazariyasi va metodikasi” kafedrasi dotsenti, PhD.*

*Annotatsiya: Maqolada dostonlar tekstida qofiya va band tuzilishi ma’lum tartiblilik asosida ijro qilinishi bilan birga, erkin harakat va voqea band tuzilishi ko‘rinishida ijro etilganligi bilan farqlanish xususiyatlari haqida so‘z boradi.*

*Kalit so‘zlar: Baxshilar, shoirlar, dostonchilik, noma, janri, romanlar,*

Epik poeziyaning yaratuvchilari ijrochilari sinfiy mansubiyatlari, repertuarlarining g'oyaviy yo'nalishlari jihatidan, professor Hodi Zarifov tekshirishlariga ko'ra, ikki guruhga bo'linadilar. Bunga sabab o'tmishda turli sinflarning manfaatlariga xizmat qiluvchi baxshilar va ularning o'zlariga xos repertuari bo'lgan.

Birinchi guruhga saroy shoirlari, qalandar, darveshsifat baxshilar kirgan. Ikkinchi guruhga esa baxshilar bevosita mehnatkash omma orasidan yetishib chiqqan, uning manfaatlarini himoya qilgan xalq kuychilari bo'lib, xalq yaratgan og'zaki badiiy ijodning eng yaxshi namunalarini saqlagan va demokratik g'oyalarni oldinga surgan dostonchilardir. Bunday baxshilarni umumiy g'oyaviy yo'nalish, sinfiy mansubiyat, keng ma'nodagi repertuar birligi, asriy dostonchilik an'analari birlashtirib turadi.

Shu bilan birgalikda, dostonchilikning bebaho asarlarini notaga olish bo'yicha ham arziqli ishlar amalga oshirilgan. Lekin ushbu jarayonda ham ancha tafovutlar bor. Jumladan, M. Yusupov “O‘zbek xalq musiqasi”ning IX jildida Xorazm doston qo‘shiqlarining 49 tasini notaga olib alohida qo‘shiqlar sifatida e’lon qilgan. Lekin ularning turkumlanish tartibi, dostonlardagi o‘rni hamda boshqa mahsus jihatlariga

e'tibor qaratmagan. O. Halimov "Qoraqalpoq namalari" nomli "O'zbek xalq musiqasi"ning VIII jildida nomalarning 46tasini ntaga tushirgan. Ularning ko'pchiligi o'z asl nomlari bilan berilgan bo'lsa, boshqalari she'r radiflari bilan atalgan va kuylarning turkumlanishi, dostonlarda qo'llaniladigan o'rinlarini ko'rsatish o'z oldiga maqsad qilib qo'ymagan. [1; -4.].

Dostonchilikda notalashtirish masalalari va ushbu masalalar bilan bir qatorda yuqoridagi fiklarni ko'rib turganimizdek, dostonchilik notalashtirish masalasida bir qator shug'ullanishni talab etadigan, ushbu masalalarni tadbiq etadigan dolzarb muammolar yo'q emas.

Muayyan balandlikda sadolanib turishi bilan tabiatdagi boshqa tovushlardan farq qiladi. Sharq olimlari nag`mani 2 xil turga bo'lishgan: qavliy (inson tomog'idan chiqadigan) nag`ma va fe'liy (musiqa cholg'ularidan hosil qilinadigan) nag`ma. Kuy, qo'shiq va ashulalar ritm bilan nag`malar uyushmasidan tarkib topadi.

O'tmishda nag`malar yunoncha va arabcha iboralar bilan ifodalangan. Arabcha atamalari asomiy nag`amot ("Asmo' un-nag'am") deyilgan; 2) ohang, kuy.nag`ma so'ziga ayrim qo'shimcha so'zlar bog'lanib, turli musiqa iborolari hosil etiladi. Masalan, nag`maboshi — doston va boshqa ko'p qismli asarlarning cholg'u muqaddsimasi, o'tmishda saroy musiqachilarining boshlig'i; nag`magar, nag`mazan, nag`machi yoki nag`manavoz — sozanda; nag`mai Orazi Navo Shashmaqom Navo maqomining cholg'u qismlaridan biri; nag`makor yoki nag`masoz — bastakor; nag`mapardoz yoki nag`masaro — sozanda, xonanda. Xorazmda garmon cholg'usi nag`machi deb ham ataladi. [2.].

Noma janri uzoq tarixga ega. Noma so'zi xat, maktub ma'nolarini bildiradi. Nomaning ilk ko'rinishlari O'rta Osiyo tarixida yozuv paydo bo'lmasdan ilgari buyumlar vositasida ham ifodalangan. Bunga misol sifatida skiflar shohi Idanfrisning Eron shohi Doroga yuborgan buyumlar — kamon o'qi, baqa, sichqon va qushdan iborat o'ziga xos «maktub»ini eslash kifoya. Bu singari maktublarning tarixi juda qadimiydir.

Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'atit-turk" asarida irqish so'zini izohlar ekan, "maktub, noma ma'nosida ham qo'llanadi" (1 jild, 17-bet) deb izoh beradi.

SHuningdek, Mahmud Koshg'ariy qo'shug' so'ziga izoh berganda ham, lirik qahramon Turkxon xotunga noma yo'llab, "xodimi xizmatga tayyor" ekanini bildiradi. "Qutadg'u bilig"da Kuntug'di elig tog'dagi g'orda zohidona hayot kechirayotgan O'zg'urmishga maktub yuborib, u bilan uchrashib, suhbatlashishni ixtiyor qilganini yozadi. Kuntug'dining bu xati ham noma janrining bir ko'rinishidir. Umuman, noma janri Markaziy Osiyo xalqlarining maishiy, ma'naviy va madaniy hayotida muhim rol o'ynagan. [6, 8.].

Noma eski o'zbek tilida bildirguluk so'zi bilan ham ifodalangan. "O'g'uznoma" dostonida O'g'uz xoqon barcha ellarning hukmdorlariga bildirguluk, ya'ni noma yuborib, bo'ysunishni va o'lpon to'lashni talab etadi. SHu tariqa ma'lum ehtiyojlar tufayli paydo bo'lgan xabarni ifodalash shakllari ham nomaning shakllanishiga asos bo'lgan bo'lishi mumkin.

Yuqorida bir nechta manbaalar orqali nomalarga ta'rif berib o'tildi. Shuningdek, yana bir ta'riflardan biri "Noma- she'riy maktub shakliday yozilgan asar. Bu guruhga Xorazmiyning Muhabbatnoma, Xodjandning Latofatnoma kabi nomalari kiritilgan. Bu birinchi ta'rif, endi ikkinchi nomaga berilgan ta'rifni ham bayon etsak. "Noma-masnaviy shaklida yozilgan asar. Aruz vaznida yozilgan asarlarni ham shu guruhga kiritilgan. [3; -158-17.].

Ular "Haqiqatnoma", "Ilohiynoma" kabi asarlarni noma janridagi asarlarni qatoriga qo'shamiz." Ikkinchi tomondan, fors-tojik adabiyotidagi noma janri ham o'zbek adabiyotidagi ilk nomaning shakllanishiga ta'sir etgani shubhasizdir. Fors adabiyotida nomachilik uzoq tarixga ega. XI asrda yashagan Faxriddin Gurgoniy "Vis va Romin" dostonida noma janrining mukammalroq namunasini ko'ramiz. Shu o'rinda "SHohnoma"ning ishqiy-romantik parchalari fors adabiyotiga ta'sir etganini aytib o'tish maqsadga muvofiq.

E.E. Bertelsning ta'kidlashicha, fors adabiyotida yangi janr – romantik eposning paydo bo'lishiga aynan "SHohnoma" ta'sir etgan bo'lib, bu janr ijodkorining ilk vakili Faxriddin Asad Gurgoniydir. 1048 yili u "Vis va Romin" dostonini yozadi, dostonida shahzoda Rominning sevgilisi Visga bo'lgan sevgisi va bu muhabbatning fojiali tugaganini hikoya qilar ekan, bu orqali qadimgi Eronning

hayoti manzarasini tasvirladi. Bu romantik epos g'arb adabiyotidagi Tristan va Izolda haqidagi o'rta asar xalq romanini eslatadi.

“Vis va Romin” dostonida ma'shuqa Vis Rominga yuborgan o'nta noma keltiradi. Bu nomalar sevgi va hijron azoblariga to'la maktublardir. Bu o'nta nomani Faxriddin Gurgoniy “Dahnoma” sarlavhasi ostida beradi. [5.].

Keyinchalik Avhadiy (1274-1338)ning tugal noma janri sifatida yaratilgan “Dahnoma”si yuzaga keldi. Bu asar qaysi manbalar asosida yaratilganini Avhadiy ko'rsatmagan. 114 Avhadiydan keyin “Dahnoma” yozish an'anaga aylangan. Xoja Imodiddin Faqih Kirmoniy “Muhabbatnomai sohibdilon” yoki “Dahnoma” asarini yozdi. Bu asar ham o'nta nomadan iborat. Bu asar ham o'nta nomadan iborat bo'lib, nomalarda muallif sevgi iztiroblarini sakkizta ishqiy-romantik dostonlar bilan izohlaydi. Bular – “Varqa bilan Gulshoh”, “Vis va Romin”, “Vomiq va Uzro”, “Xusrav va SHirin”, “Rubob va Daf” “Bishr va Hind”, “YUusuf va Zulayho”lardir. Mazkur dostonlar SHarq adabiyotida ma'lum va mashhur afsonalar asosiga qurilishi bilan birga, majoziy obrazlar zaminida yaratilgan dostonlar ham bu noma janrida ishtirok etgan.

Xullas, nomachilik fors adabiyotida qadim ildizlarga ega. Ayni paytda Markaziy Osiyoning qadimiy udumlari, yuqorida ko'rib o'tganimizday, ijtimoiy, siyosiy va harbiy hayoti ham noma janriga o'z ta'sirini o'tkazgan. Janrlarning turli-tumanligi hamda ularning ijroviy yoki tahliliy jarayonlar orqali janrlarning bir-biriga bog'lanishi aynan dostonchilik ijodiyotida ham yaqqol namoyon bo'ladi.

## **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR**

1. Matyaqubov. “O'zbek dostonlarining musiqiy xususiyatlari”. Urganch-2022-yil.
2. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. Raxmonova Sh. M. “Noma janriga mansub dostonlarning vazn xususiyatlari”.//O'zbekiston Xorijiy tillar.-2022-yil.
4. Yuldoshev, U. Y. (2021). PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL

APPROACHES TO THE PROFESSIONAL PREPARATION OF THE FUTURE MUSIC TEACHER. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(10), 56-61.

5. Yuldoshev, U. (2023). EFFECTIVENESS OF SPIRITUAL AND ETHICAL EDUCATION OF STUDENTS THROUGH CULTURAL AND ARTISTIC EVENTS. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 3(12), 342-345.

6. Юлдошев, У. Ю. (2019). Музыка укитувчиси мутахассислигининг замонавий модели ва профессиограммаси. Современное образование (Узбекистан), (9 (82)), 47-53.

7. Юлдошев, У. Ю. (2017). Эксклюзивные свойства педагогической технологии в преподавании музыки. Молодой ученый, (22), 207-209.

8. Юлдошев, У. Ю. (2020). РОЛЬ АРТИКУЛЯЦИИ В ПРОЦЕССЕ ИЗУЧЕНИЕ МАКОМА. In АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ (pp. 87-89).

9. Yuldoshev, U. (2018). Problems of Choosing Methods and Technologies in Musical Pedagogics. Eastern European Scientific Journal, (2).

10. Юлдошев, У. Ю. (2024). ОЛИЙ ПЕДАГОГИК МУСИҚА ТАЪЛИМИ ТИЗИМИДА МАҚОМ САНЪАТИ МАСАЛАСИ. Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari, 30(2), 133-139.

11. Sheraliyevna, S. D., & Yuldoshevich, Y. U. (2024). LEVEL OF VOCAL SINGING PERFORMANCE OF SPECIALIZED SCHOOL STUDENTS WITH DISABILITIES. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 42(3), 141-146.

12. Yuldoshevich, Y. U. (2024). ТА'ЛИМ СИФАТИНИ ТА'MINLASHDA OCHIQ DARSLARNING O'RNI. Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi, 5(1), 223-226.